

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT VILOYATI**  
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**110000 – Pedagogika ta‘lim sohasi negizidagi:**

**5A111901 – Maxsus pedagogika (surdopedagogika)**

**magistratura mutaxassisliklariga kirivchilar uchun maxsus  
(ixtisoslik) fanlaridan**

**D A S T U R**

## **Chirchiq- 2021 y.**

### **Annotatsiya**

Dastur 5A111901 – Maxsus pedagogika (surdopedagogika) magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5111900-Defektologiya (faoliyat turi bo'yicha) ta'lim yo'nalishining 2018/2019 o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejadagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

#### **Tuzuvchilar:**

**F.U. Qodirova** - ChDPI Defektologiya kafedrası mudiri v.b., p.f.d., dots.

**G.S. Abdullayeva** - ChDPI Defektologiya kafedrası dots. v.b., (PhD)

**I.Sayfullayeva** ChDPI Defektologiya kafedrası o'qituvchisi

**X. Yunusova** ChDPI Defektologiya kafedrası o'qituvchisi

Dastur Pedagogika fakultetining 2020 yil 30 dagi № 9 sonli Kengashi yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

## KIRISH

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida ta'lim oluvchining akademik, ijtimoiy ehtiyojlarini tezkor diagnostika qilish orqali sifatli ta'lim bilan ta'minlashning modernizatsiyalashgan tizimini modellashtirish imkoniyati kengaydi. YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inchxon deklaratsiyasi “Bir umrlik ta'lim” , “Ta'lim hamma uchun” dasturi asosida imkoniyati cheklangan bolalarni ta'limga erta jalb etish, ularga o'quv fanlarini samarali o'rgatish orqali ularni ijtimoiy hayotga hamda inklyuziv ta'limga tayyorlash, uzluksiz ta'limda fanlarni o'qitish metodikalarini takomillashtirishda ilmiy tadqiqotlar va innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj kuchaymoqda. Ushbu yondashuvlarni ilmiy salohiyatli kadrlar amalga oshiradi. Mamlakat maxsus ta'limini takomillashtirish orqali inklyuziv ta'limga erishish dolzarb sanalmoqda.

Mazkur dastur 2020-2021 o'quv yilida 5A111901 – Maxsus pedagogika (surdopedagogika) yo'nalichida magistraturaga kiruvchilar uchun kirish sinovlari dasturi, savolnomalari va baholash mezonlarini o'z ichiga olgan.

5111900-Defektologiya (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha o'qishga kiruvchilar uchun test savollari pedagogika oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat yo'nalishlarida o'qitilgan “Maxsus pedagogika (surdopedagogika)”, “Surdopedagogika tarixi”, “Surdopsixologiya”, “Eshitish idrokini rivojlantirish, talaffuzni shakllantirish”, “Fanlarni o'qitish nazariyasi va metodikasi” kurslari mazmuni asosida tayyorlangan.

Maxsus pedagogikaga oid xorijiy va milliy nazariy qarashlar hamda manbaalarga asoslanildi. Xususan, xorijiy olimlar: L.S.Выготский, L.I.Aksenova, ye.G.Rechitskaya, J.I.Shif, L.A.Golovchits, L.N.Nazarova va boshqalar, respublika olimlari: prof. L.R.Muminova, U.Y.Fayziyeva, N.Bekmurodov, D.Nazarova, F.U.Qodirova, N.Dadaxo'jayeva, Z.Mamarajabovalar va boshqalar, psixolog olimlar G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonovalarning nuqtai nazarlariga tayanildi.

## **Asosiy qism**

**“Maxsus pedagogika (surdopedagogika)”** kursi surdopedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, eshitish muammosi va unga ta’sir etuvchi omillar, korreksion-pedagogik jarayon va uning mohiyati, karlar ta’limi nazariyasi, korreksion ta’lim jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari, ta’lim mazmuni, ta’lim metodlari va vositalari, ta’limni tashkil etish shakllari, kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari, metodlari, tarbiya turlari mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, shakl, metod va vositalari, eshitishni tashxis qilish, til o‘rgatish davrlari, korreksion pedagogika asoslarini o‘z ichiga qamrab oladi.

**“Surdopsixologiya”** kursi fanining maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, kar va zaif eshituvchi bola shaxsi rivojlanishi va unga ta’sir etuvchi omillar, korreksion-pedagogik jarayonning psixologik jihatlarini, karlar ta’limi nazariyasida psixologiyani o‘rni, korreksion ta’limning psixologik qonuniyatlari va tamoyillari, psixologik metodlar va vositalar, kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning diqqati, xotirasi, tasavvurlari, nutqini tashxis etish, tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari, metodlari, korreksion psixologiya asoslarini o‘z ichiga qamrab oladi.

**“Surdopedagogika tarixi”** kursi surdopedagogikaning tarmog‘i sifatida pedagogik fikrlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganishga hizmat qiladi.

Karlar ta’limi tarixiga oid qator tizimlar: “Sof og‘zaki metod”, “Mimika metodi”, “Onalar metodi”, “Aralash metod”, kommunikativ tizimlar mohiyati kasbiy amaliyot uchun zarur ma’lumotlardir. Yevropada va AQSh da hamda sharqda karlar ta’limi va ularga ijtimoiy munosabatlar haqida mutaxassis bilishi lozim.

**“Fanlarni o‘qitish nazariyasi va metodikasi” va “Eshitish idrokini rivojlantirish, talaffuzni shakllantirish”** kurslarida ta’lim amaliyoti va o‘qituvchi mahorati masalasining aks etishi, o‘qituvchining nutq madaniyati, o‘quv jarayonidagi mahorati, tarbiyachilik mahorati, dars va korreksion

mashg'ulotni ilmiy asosda tashkil etishi, o'quv fanlarini o'qitishning maqsadi va vazifalari hamda o'ziga xosliklari kabi masalalar o'rganiladi.

**5111900-Defektologiya (faoliyat turi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi negizidagi  
5A111901 – Maxsus pedagogika (surdopedagogika) magistratura  
mutaxassisligiga kiruvchilar uchun maxsus  
(ixtisoslik) fanlaridan kirish imtihoni yozma ishlarini  
o'tkazish tartibi va baholash mezon**

Ixtisoslik fanlari bo'yicha magistraturaga kirish imtihoni "Yozma ishi" ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variantda beshtadan savol aks ettiriladi.

"Yozma ish" variantlarining birinchi savoli "Maxsus pedagogika (surdopedagogika)", ikkinchi savoli "Surdopsixologiya", uchinchi savoli "Surdopedagogika tarixi", to'rtinchi savoli "Fanlarni o'qitish nazariyasi va metodikasi", beshinchi savoli esa "Eshitish idrokini rivojlantirish, talaffuzni shakllantirish" fanidan bo'lib, har bir savol 20 balli tizim asosida baholanadi.

Yozma ishini o'tkazish uchun uch (akademik) soat vaqt beriladi.

**Ixtisoslik fanlaridan magistratura kirish imtihoni yozma ishidagi har bir savoldan talabalar bilimi quyidagi mezon asosida baholanadi:**

- berilgan savolga to'g'ri va to'liq javob yozilsa, savolning mazmuni, mohiyati to'g'ri va izchil yoritilsa, shuningdek, ijodiy yondashilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa o'zlashtirish ko'rsatkichi **17–20 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, savolning mazmuni to'liq yoritilgan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi **14– 16 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga to'g'ri javob yozilsa, biroq berilgan savolning mazmuni to'liq yoritilmagan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi **11–13 ball** oralig'ida baholanadi;

- berilgan savolga javob noto'g'ri yoki yuzaki javob yozilsa, qo'yilgan masalaning mohiyati mazmuni ochib berilmasa, unda o'zlashtirish ko'rsatkichi **0 - 10 ball** oralig'ida baholanadi.

Ixtisoslik fanlaridan kirish imtihoni bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi **0 dan 100 balgacha** baholanadi (86-100 ball – a'lo, 71-85 ball – yaxshi, 55-70 ball – qoniqarli, 0-54 ball – qoniqarsiz).

**ESLATMA:** Kirish imtihoni jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan abituriyentlar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran 24 soat muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Imtihon komissiyasi va talaba o'rtasida baholash ballari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda qabul komissiyasi raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

## **1. Foydalanilgan asosiy manbaalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalar**

1. Sh.M. Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz – Toshkent.; O‘zbekiston nashriyoti. 2017 yil.
2. Sh.M. Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent.; O‘zbekiston nashriyoti. 2017 yil.
3. Sh.M. Mirziyoev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda parpo etamiz. – Toshkent.; O‘zbekiston nashriyoti. 2017 yil.
4. Sh.M. Mirziyoev. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent.; O‘zbekiston nashriyoti. 2017 yil.

### **1. Asosiy adabiyotlar ro‘yxati**

1. U.Y.Fayzieva. “Eshitishida muammolari bo‘lgan bolalarga ona tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent, “Tafakkur”, 2011. 196 bet.
2. D.B.Yakubjanova, M.U.Xamidova. “Matematika o‘qitish maxsus metodikasi”. Toshkent, “Istiqlol”-2012, 237 bet.
3. N.Dadaxo‘jaeva, N.Nurmuxamedova, D.Yakubjanova, L.Nurmuxamedova. “Surdopedagogika”, Toshkent, “Iqtisod-moliya”, 2007, 187–bet.
4. M.Po‘latxo‘jaeva. “Defektologiyaning klinik asoslari”, Toshkent, 2013. 255 bet.
5. Maktabgacha tarbiya yoshidagi zaif eshituvchi bolalarni o‘qitish va tarbiyalash dasturi. Tuzuvchi: Rasulova N.A. – Toshkent: RO‘MM, 1993.
6. Fayziyeva U., Nazarova D., Qodirova F. «Surdopedagogika» Malaka oshirish institutlari va pedagogika institutlari – Toshkent: «Sano-standart» 2012.
7. Qodirova F.U. Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. Avt.– Toshkent:TDPU. 2006. – 20 b.
8. Fayziyeva U.Y. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o‘rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994. – 18 b.
9. Shomaxmudova R. Farzandingizga ozingiz yordam bera olasiz // Bola va zamon.– Toshkent, 2006. – № 1. – B. 45.
10. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar ta’limini takomillashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2007. – B. 60-63.
11. Boskis R.M Gluxie i slaboslyshayacie deti. M., 1993.
12. Nudelman V.A. Osobennosti psixicheskogo razvitiya guloxogo rebenke. M.: 1995.



